**O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Respublika Inkassatsiya xizmati davlat unitar korxonasi Sirdaryo viloyat boshqarmasining xaridlar bo'yicha Tanlov komissiyasining 6 - sonli yig'ilish bayonnomasi**

27 Yanvar 2022 yil Guliston shaxar

| | |
|---|---|
| Komissiya raisi: | J.N.Atabekov |
| Komissiya raisi o'rinbosari: | K.J.Muxamadiyev |
| Komissiya a'zolari: | J.T.Xamrabayev, A.X.Safarov, A.Mirzaaliyev |
| Komissiya totibi: | M.A.Umarov |

**Y I G' I L I Sh K U N T A R T I B I :**

**Respublika Inkassatsiya xizmati DUK Sirdaryo viloyat boshqarmasining fuqarolar bilan to'g'ridan to'g'ri muloqat qiladigan xodimlariga ximoya niqoblari, antiseptik va dizenfektsiya vositalarinii ishda foydalanish maqsadida sotib olishga shartnoma tuzish to'g'risida.**

(J.N.Atabekov, K.J.Muxamadiyev, M.A.Umarov, J.N.Atabekov)

Tanlov komissiyasi raisi J.N.Atabekov so'zga chiqib, Tanlov komissiyasining navbatdagi yig'ilishida 5 kishidan iborat komissiya a'zolaridan 5 kishi ishtirok etayotganligi va kvorum mavjudligini ma'lum qilib, tanlov komissiyasining majlisini ochiq deb e'lon qilish masalasini ovozga qo'ydi.

Yig'ilish ishtirokchilari ushbu taklifni bir ovozdan tasdiqladilar, qarshilar - yo'q, betaraflar - yo'q.

Tanlov komissiyasining majlisi kvorum mavjudligini hisobga olib, majlisda ishtirok etayotgan a'zolar tarkibi bilan ochiq deb e'lon qilinsin.

Tanlov komissiyasi raisi - J.N.Atabekov kun tartibidagi masala yuzasidan ma'lumot berish uchun Boshqarma boshlig'i o'rinbosari, komissiya kotibi M.A.Umarovga so'z berdi.

Boshqarma boshlig'i o'rinbosari, komissiya kotibi M.A.Umarov so'zga chiqib, Respublika Inkassatsiya xizmati DUKning 2022 yil 17 yanvardagi 8-sonli buyrug'iga asoslanib, Sirdaryo viloyat boshqarmasining Avtotransport bo'yicha etakchi mutaxassisi J.T.Xamrabayevning 2022 yil 26 yanvardagi boshqarma boshlig'i nomiga xodimlar uchun karantin davrida **ximoya niqoblari, antiseptik va dizenfektsiya vositalari** sotib olishga ruxsat so'rab bildirishnoma kiritilganligini ma'lum qildi.

Shundan so'ng komissiya raisi J.N.Atabekov so'z navbatini boshqarma bosh buxgalteri K.J.Muxamadiyevga berdi.

K.J.Muxamadiyev so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori bilan tasdiqlangan ro'yxatning 13-bandiga asosan narxlari qonun xujjatlariga muvofiq qat'iy belgilangan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridlariga nisbatan tadbiq etilmasligini xisobga olib, epidemiyaga qarshi preparatlar (**ximoya niqoblari, antiseptik va dizenfektsiya vositalari**) sotib olishga to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish mumkinligini haqida yig'ilish qatnashchilariga axborot berdi.

Komissiya a'zolari ishlab-chiqarish samaradorligini ta'minlash maqsadida hamda majlisga taqdim etilgan xujjatlar va majlisda so'zga chiqqanlarning fikr va takliflarini inobatga olib, "New

inavatsion pharm" MCHJ tomonidan taqdim etilgan 2022 yil 24 yanvardagi 9-sonli shartnoma loyihasini to'g'ridan–to'g'ri tuzish masalasini bir ovozdan ma'qullab ovoz berishdi, qarshilar yo'q, betaraflar-yo'q.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, shuningdek, so'zga chiqqan komissiya a'zolari tomonidan bildirilgan fikr va takliflarni inobatga olib, tanlov komissiyasi

**QAROR QILADI:**

1. Respublika Inkassatsiya xizmati DUK Sirdaryo viloyat boshqarmasining Avtotransport bo'yicha etakchi mutaxassisi J.T.Xamrabayevning 2022 yil 26 yanvardagi bildirishnomasi, Boshqarma boshlig'i o'rinbosari, komissiyasi kotibi M.A.Umarov va bosh buxgalter K.J.Muxamadiyevning kun tartibidagi masala yuzasidan bergan axborotlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Respublika Inkassatsiya xizmati DUK Sirdaryo viloyat boshqarmasi va "New inavatsion pharm" MCHJ o'rtasidagi shartnomani amaldagi qonunchilik asosida to'g'ridan-to'g'ri shartnomani rasmiylashtirishga ruxsat berilsin.

3. Respublika Inkassatsiya xizmati Sirdaryo viloyat boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari M.A.Umarovga RIX DUK Sirdaryo viloyat boshqarmasi hamda "New inavatsion pharm" MCHJ o'rtasidagi 2022 yil 24 yanvardagi 9-sonli shartnomani shartnoma tuzilgan kundan 3 kunlik muddatdan kechiktirmasdan elektron partalga joylashtirsin.

4. Shartnoma shartlari asosida to'lovlarni amalga oshirish Buxgalteriya bo'limi zimmasiga yuklatilsin.

5. Katta yuristkonsult A.X.Safarov va bosh buxgalter K.J.Muxamadiyev shartnoma shartlarini o'z muddatida bajarilishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

6. Ushbu qaror bajarilishi yuzasidan nazorat Komissiya raisi zimmasiga yuklatilsin.

**Komissiya raisi**

Boshqarma boshlig'i J.N.Atabekov

**Komissiya raisi o'rinbosari**

Bosh buxgalter K.J.Muxamadiyev

**Komissiya azolari**

Avtotransport bo'yicha etakchi mutaxassis J.T.Xamrabayev

Kattayuristkonsult A.X.Safarov

Xodimlar bilan ishlash bo'yicha etakchi mutaxassisi A.Mirzaaliyev

**Komissiya kotibi**

Boshqarma boshlig'i o'rinbosari M.A.Umarov